<old qopqoq>

Tibbiy ko’rik dasturi haqida ma’lumot
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Ingliz tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Xitoy tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Yapon tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Y’yetnam tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Filippin (tagal tili)
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Tay tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_ O‘zbek tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Mo’g’ul tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Kampuchiya tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Nepal tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Indonez tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Singalcha
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Rus_tili
Tibbiy tekshiruv dasturiga oid ma’lumotnoma_Birma_tili

“Siz doim baxtiyor bo’lishingizni ta’minlash uchun biz kichik narsalarni amalga oshiramiz; Milliy salomatlik sug’urtasi xizmati siz bilan.”

Sog’liqni saqlash vazirligi,
Milliy sog’liqni saqlash sug’urta xizmati

【Tibbiy ko’rik dasturi haqida ma’lumot】

Milliy salomatlik sug’urtasi xizmati tibbiy ko’riklar orqali tibbiy xizmatlar uchun yordam oluvchi shaxslariga tibbiy yordam va salomatlik sug’urtasi a’zolariga salomatlik sug’urtasi xizmatlarini ko’rsatadi. Tibbiy ko’rikdan maqsad kasalliklarni oldini olish yoki kasallikning avj olishiga yo’l qo’ymaslik uchun uni erta aniqlash va inson salomatligi yaxshi bo’lishini ta’minlash uchun tegishli choralarni ko’rishdan iborat.

♠ **Oddiy tibbiy ko’rik** yuqori qon bosimi, qandli diabet kabi yurak-miya qon tomiri kasalliklari oldini olib, boshlang’ich bosqichida aniqlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Ushbu ko’rikdan 20 yoshdan oshganlar 2 yilda 1 marta o’tishlari mumkin. Hududiy a’zo va ishchi a’zolarga yosh cheklov yo’q. Offis ishchisi bo’lmagan shaxslar uchun 1 yilda 1 marta tibbiy ko’rik o’tkaziladi.

♠ **Og’iz bo’shlig’ini tekshirish,** og’iz bo’shlig’i kasalliklari, periodontal kasalliklar va shu kabi, umumiy sog’liqni saqlash kassaliklarni oldindan aniqlash uchun o’tkaziladi.

♠ **Saraton ko‘riklari** oddiy usullar yordamida erta aniqlash mumkin bo‘lgan va davolash mumkin bo‘lgan, eng ko‘p uchraydigan oltita asosiy saraton turlarini e’tiborini qaratadi. Saraton tekshiruvi turlari va kimlar bu tekshiruvdan o‘tishi: 40 yoshdan oshganlar uchun oshqozon saratoni va ko‘krak bezi saratoni tekshiruvi, 50 yoshdan oshganlar uchun yo‘g‘on ichak saratoni tekshiruvi, 20 yoshdan katta ayollar uchun bachadon bo‘yni saratoni tekshiruvi va 40 yoshdan oshgan jigar saratoni xavfi yuqori bo‘lgan insonlar uchun jigar saratoni tekshiruvi hamda 30 yildan oshiq vaqt davomida kuniga bir qutidan chekkan 54 yoshdan 74 yoshgacha bo‘lgan shaxslar uchun o‘pka saratoni tekshiruvi. Oshqozon, ko‘krak bezi va bachadon bo‘yni saratoni tekshiruvi har ikki yilda bir marta, yo‘g‘on ichak saratoni tekshiruvi har yilda bir marta, jigar saratoni tekshiruvi har yilda ikki marta amalga oshiriladi.

♠ **Go’daklar tibbiy ko’riklari** bolaning mo’tadil o’sishini nazorat qilib borish uchun zarur bo’lgan tekshiruvlarni, shu jumladan bolaning o’sish va rivojlanishini baholash tekshiruvlarini, shuningdek, go’dakni parvarishlashga oid maslahatlarni o’z ichiga oladi. 6 yoshgacha bo’lgan bolalar jami 10 ta korikdan o’tishlari mumkin bo’lib, bu ko’riklar bolalarning 4, 9, 18, 30, 42, 54 va 66 oylik bo’lgan paytida amalga oshiriladi. Ko’riklar ro’yxatidan stomatologiya ko’rigi ham o’rin olgan.

【Tibbiy ko’rik to’lovi】

♠ Umumiy tibbiy ko’rikdan o’tish xarajatlari va chaqaloqlarning sog’lig’ini tekshirishi korporatsiya tomonidan to’liq qoplanadi. Shuning uchun tekshiruv vaqtida topshiruvchi tomonidan qo’shimcha xarajatlar to’lanmaydi.

♠ Saraton tekshiruvi bilan bog’liq ravishda sarf-xarajatlarning 90 foizi korporatsiya tomonidan to’lanadi, qolgan 10 foizi esa topshiruvchi tomonidan qoplanadi. Biroq, bachadon bo’yni saratoni va yo’g’on ichak saratoni bilan bog’liq tekshiruvni to’liq amalga oshirish korporatsiya tomonidan amalga oshiriladi.

♠ Davlat rak tekshiriluvchisi(oz miqdordagi sug’urta pulini to’lagan shaxs, ko’rik varaqasida ko’rsatiladi) uchun u to’lashi kerak bo’lgan 10%ni davlat to’lab berishi bois, tekshiriluvchi harajati sodir bo’lmaydi.

【Tibbiy ko’rik tartibi】

♠ Tekshiriluvchini aniqlash

Tashkilot tomonidan tekshiriluvchi (yashash joyi yoki ish joyiga)ga xat yuborilib, tekshiruv punktlari va tana organlarini tasdiqlaydi

♠ Tibbiy ko’rik agentligiga qabul tayinlash va tashrif buyurish

Yashash joyingizdan qat’iy nazar ISTALGAN VAKOLATLI shifoxonada tibbiy ko’rik uchun qabul tayinlashingiz mumkin. Tibbiy ko’rikka o’z ID va tibbiy ko’rik kartangizni o’zingiz bilan birga olib boring.

♠ Ko’rik natijasi haqida xabar berish

Tekshiruv natijasi topshiruvchi bergan kontakt ma’lumotlariga skrining agentligi tomonidan skrining o‘tkazilgan joydan pochta orqali yuboriladi va tasdiqlash tekshiruvi tibbiy ko‘rikning umumiy natijalariga qarab kasallik borligiga shubha qilinayotganlar ustidan o‘tkaziladi.

【Tibbiy ko’rikdan o’tishda quyidagilarga amal qiling】

♠ Ko’rikdan bir kun oldin kechki soat 9 dan keyin ovqatlanmang

- Kamida 8 soat bo’sh oshqozon holatini saqlang
- Bo’sh oshqozon holati bo’lmasa noaniq natija olish mumkin.

♠ Xayz payti(hayz kelishidan oldin va keyingi 2-3 kun)da ko’rikdan o’tmang.

♠ Ko’rikdan faqat belgilanga marta o’tish mumkin. Belgilangan sondan oshsa xarajat undirib olinadi.

<orqa qopqoq>

【Yurak-miya qon tomiri kasalliklari oldini olishning 9 qoidasi】

<Ilova: Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot vazirligi>

1_Albatta chekishni tashlang.

2_Bir kunda ichish miqdorini 1-2 stakandan kamga kamaytiring.

3_Ovqatni tanlamasdan va kam tuz solib yeng, sabzavot va baliqni yetarli iste’mol qiling.

4_Har kuni kamida 30 minutdan oshiq jismoniy mashq qiling.

5_Normal vazn va bel aylanasi uzunligini saqlang.

6_Asabiylashishni kamaytiring va quvnoq yashang.

7_Qon bosimi, qondagi shakar miqdori va xolesterolni muntazam o’lchab boring.

8_Yuqori qon bosimi, qandli diabet, dislipidemiya kabilarni doimiy davolab boring.

9_Insult (tutqanoq kasali), infarkt(yurak xuruji) payti tez hosil bo’ladigan simptomlarni uqib olib, hosil bo’lsa zudlik bilan kasalxonaga otlaning.

【NHIS veb-sahifasi xorij tillarida】

☞ http://www.nhis.or.kr/english/

☞ http://www.nhis.or.kr/japanese/

☞ http://www.nhis.or.kr/chinese/

☞ http://www.nhis.or.kr/vietnamese/

【NHIS mijozlar bilan ishlash markazi (ingliz tilida)】☎ 033-811-2000

【Til so’rovnomasi va sog’liqni tekshirish ma’lumotini imzolang】

Sog’liq iN bosh sahifasi